

FRAZEOLOGIK MINIMUMLARNING MAVZUVIY-SEMANTIK UYALARI

Z.I. Radjabova (PhD),

Qarshi davlat universiteti

S.S. Akramova, magistrant,

Qarshi davlat universiteti

***Annotatsiya:** maqolada o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni semantik jihatdan klassifikatsiya qilish, frazeologik minimumlarni tuzishda frazemalarning mavzuviy-semantik uyalari bo'yicha joylashtirish masalalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** frazeologizm, klassifikatsiya, leksik ma'no, frazeologik ma'no, nominativ ma'no, paradigma.*

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni semantik jihatdan klassifikatsiya qilish masalalari to'g'risida xilma-xil qarashlar mavjud. Bu esa frazeologik minimumlarning ro'yaxatlarini shakllantirishda ham turlicha yondashuvlarni yuzaga keltiradi. Frazeologizmlar ko'p hollarda so'zlarga muqobil bo'lishi bilan birga, frazeologik ma'no bilan leksik ma'no teng bo'lavermaydi. Bu o'rinda prof.A.Hojiyevning fikriga to'liq qo'shilish lozim: "frazeologizmlar o'z sinonimlari bo'lmish so'zlarga nisbatan, birinchidan, ma'noni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ular obrazlilik ottenkasiga ega"¹¹.

Demak, frazeologizmlarning semantik strukturasi frazeologik ma'no, ya'ni nominativ ma'no va qo'shimcha ottenkalardan iborat bo'ladi. Frazeologizmlarning ma'nolari ko'proq matnda va nutq vaziyatida kengroq reallashadi. Lekin ular alohida ham ma'lum nominativ ma'noda ifodalashi mumkin. Nominativ ma'no belgi,

¹¹ Хожиев А. Хозирги ўзбек адабий тили . "Фразеология" .- Тошкент, "Ўқитувчи",1981,180-бет

harakat, predmet kabilar haqida frazeologizm ifodalaydigan ma'lumot hisoblanadi. Masalan, tilimizdagi "ko'zi to'rt bo'lmoq", "yuragiga g'ulg'ula tushmoq", "yuragi taka-puka", "oyog'i kuygan tovuqday", "toqati toq bo'lmoq" kabi ma'nodosh frazeologizmlar anglatgan "tashvishlanish", "toqatsizlanish", ma'nosi shu frazeologizmlarning nominativ ma'nosi hisoblanadi. Bular kishilarning toqatsiz harakati to'g'risida ma'lumot beradi. Yoki, tilimizdagi "ko'ngli toza", "dili toza", "yuragi toza", "qo'y og'zidan cho'p olmagan", "musichadek beoor" kabi frazeologizmlar uchun "sofdil", "halol" ma'nosi, shu frazeologizmlar uchun nominativ ma'no sanalsa, "ilonning oyog'ini sanagan", "pixini yorgan", "tulkilik qilmoq", "ichidan pishgan" kabi frazeologizmlar uchun "mug'ombirlik" nominativ sanaladi. Bu frazeologizmlar xarakterning belgilari haqida ma'lumot beradi

O'zbek tilida shaxs bilan bog'liq bo'lgan va shaxs bilan bog'liq bo'lmagan frazeologizmlar shakliy va mazmuniy strukturasi o'xshash bo'lishi mumkin. Shaxs bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar uchun shaxslik belgisi integral belgi bo'ladi va ularni modellashtirish, semantik-tematik guruhlariga ajratish uchun asos bo'lishi mumkin. Frazeologizmlarning mazmuniy iyerarxik tuzilishida eng yuqori bosqichni kategorial ma'no egallaydi. Frazeologizmlarning kategorial ma'nosi yuqori darajada abstraksiyalanishga ega bo'lib, frazeologizmlarning qaysi grammatik kategoriyaga mansublik belgisini o'z ichiga oladi. Bir xil kategorial ma'noga ega bo'lgan frazeologizmlar katta bir paradigma ostiga birlashadi va frazeologizmlarni ma'lum so'z turkumlariga mansubligini bildiradi¹².

Yuqoridagilar asosida frazeologik minimumlarni tuzishda frazemalarning quyidagi mavzuviy-semantik uyalarini bo'yicha joylashtirish lozim degan xulosaga keldik:

1. Zavqlanish, shodlik va baxtiyorlikni ifodalovchi frazeologik birliklar uyasi – "og'zi qulog'iga yetdi", "og'zi qulog'ida", "og'zining tanobi qochdi", "labining tanobi qochdi", "boshi osmonga etdi", "boshi ko'kka yetdi", "terisiga sig'may ketdi", "ko'ngil ko'tarilmoq", "ko'ngli tog'day ko'tarilmoq", "quvonchi

¹² Ш.Ганиева. Ўзбек фразеологизмларининг структур тадқиқи. Тошкент –Фан- 2013 70-бет

ichiga sig'maydi", "sevinchi ichiga sig'maydi", "quvonchi olamga sig'maydi", "do'ppisini osmonga otmoq" va boshqalar.

2. Ajablanish, taajjub, hayratni ifodalovchi frazeologik birliklar uyasi – "og'zi ochilib qolmoq", "yoqasini ushlamoq", "oyog'i ostidan chiqib qolmoq", "ko'zi olma-kesak termoq", "boshi (miyasi) g'ovlab ketmoq", "o'zini qo'yarga joy topolmay qolmoq", "hang-mang bo'lib qolmoq", "hafsalasi pir bo'lmoq", "osmondan tushgandek", "o'z ko'zlariga ishonmaslik" "yetti uxlab tushiga kirmaslik", "oyoq ostidan chiqib qolmoq", "ensasi qotmoq" kabi.

3. O'kinch, xafalik, qayg'u, ozor, hasratni ifodalovchi frazeologik birliklar uyasi – "dili siyoh bo'lmoq", "yurakka qil sig'maydi", "yig'lamoqdan beri bo'lmoq", "xo'rliqi kelmoq", "dog'da qolmoq", "yurak bag'ri qon bo'lmoq", "bag'r(i) qon bo'ldi", "yuraklar qon bo'ldi", "qon bo'lgan yuraklar", "qon qilmoq", "yuragini siqmoq", "yuragi siqildi", "o'pkasi to'lmoq", "qo'lini burniga tiqib qolmoq", "ta'bi tirriq", "tabiati tirriq bo'ldi", "ta'bini tirriq qilmoq", "ta'bi xira", "kayfi buzuk", "ta'bi xira bo'ldi", "ta'bini xira qilmoq", "kayfi buzildi", "kayfini buzmoq", "ta'bi xufton bo'lmoq", "ta'bi nomozshom bo'lmoq" kabi.

4. Hayajon, tashvish, xavotirlik kabi ma'no ifodalaydigan frazeologik birliklar uyasi – "o'tirgani joy topolmaslik", "o'zini qo'ygani joy topolmaslik", "jizg'anagi chiqmoq", "ko'ngli g'ash", "yuragi g'ash", "ko'ngli xira", "ko'nglining bir chekkasi g'ash", "yuragini tirnamoq", "ko'zi to'rt bo'lmoq", "ichi g'ash", "yuragiga g'ulg'ula tushmoq", "yuragiga g'ulg'ula solmoq", "yuragi taka-puka", "yuragi tipirchilamoq", "oyog'i kuygan tovuqday", "toqati toq bo'lmoq", "o'zini qayerga qo'yishini bilmaslik", "o'zini qo'ygani joy topolmaslik", "o'zini qayoqqa urushini bilmaslik", "sabr kosasi to'ldi", "joni xalqumiga keldi", "pichoq suyakka yetti" va hokazo kabilar kiradi.

5. Qo'rquv, vahima, dahshat ma'nolari ifodalovchi frazeologik birliklar uyasi – "yurak" somatizmi orqali yasalgan "yuragi chiqib ketdi", "yurak-puragi chiqib ketdi", "yuragi qoq yorila yozdi", "yuragi yorulguday bo'lib ketdi", "yuragi yorildi", "yuragini changallab", "yuragini hovuchlab (jonini hovuchlab)", "yuragi

orqasiga tortib ketdi”, *“yuragi orqasiga urub ketdi*”, *“yuragi shig‘ etib ketdi*”, *“yuragi shuv etib ketdi*”, *“esi chiqib ketdi*”, *“o‘takasi yorildi*”, *“kayfi uchdi*”, *“qotib qolmoq*”, *“es-xonasi yorildi*”, *“nafasi ichiga tushub ketdi*”, *“dami ichiga tushib ketdi*”, *“rangi quv o‘chmoq*”, *“o‘takasi o‘nga bo‘lindi*”, *“o‘takasi o‘ttiz ikkiga bo‘lindi*” kabi.

6. G‘azab, nafrat, qahr, jahl ma’nolarni ifodalovchi frazeologik birliklar uyasi – “ko‘z” somatizmi asosida yuzaga kelgan *“ko‘rarga ko‘zi yo‘q”*(*ko‘rgani ko‘zi yo‘q*), *“ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q”*, *“ko‘zlarining paxtasi chiqdi*”, *“ko‘zlari qinidan chiqa yozdi*”, *“ko‘zlari kosasidan chiqa yozdi*”, *“ko‘ziga qon quyilmoq”* kabilari; *“tepa sochi tikka bo‘ldi*”, *“g‘azabi qaynamoq*”, *“g‘azabga kelmoq*”, *“qoni qaynamoq*”, *“qovog‘idan qor yog‘moq”* kabilarni o‘z ichiga oladi.

7. Qarg‘ish, so‘kish ma’nolarini ifodalovchi frazeologik birliklar uyasi – *“diydoring qursin*”, *“yer yutkur*”, *“ko‘zimdan yo‘qol*”, *“go‘ringda to‘ng‘iz qopgur*”, *“beti qursin*”, *“go‘riga g‘isht qalamoqi*, *“uying kuysin*”, *“ko‘zing ko‘r bo‘lsin*”, *“ko‘zingga qarasang o‘larmiding*”, *“isqotlariga buyursin*”, *“padaringga ming la‘nat*”, *“buzilib o‘lsin*”, *“iloyo kosasi oqarmasin”* kabi frazeologizmlar.